

TIL O‘RGANISHDA KINO FILMLARNING AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: Gulrux Xasanova

Samarqand davlat chet tillari instituti dotsenti v.b., PhD

Sevinch Abdujalilova

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya

XXI asrning dolzarb muammolaridan biri til bilish hisoblanadi. Hozirgi kunda o‘ramizda 2 yoki 3 tilni bilgan shaxslar juda ko‘p uchraydi. Shuningdek, ularning moliyaviy taraflari ham shunga bog‘liqlik, ko‘pgina bo‘sh ish o‘rnida ishlash uchun ularning nechta tilni bilishi juda muhim va maosh ham shunga qarab to‘lanadi. Mazkur maqolada ingliz tilini qanday qilib kino filmlar orqali o‘rganish mumkinligi haqida atroflicha fikr yuritiladi. Unda til o‘rganuvchi kishilar uchun qiyinchiliksiz faqatgina kino tomosha qilish orqali ingliz tili darajasini oshirish uchun bir nechta foydali ko‘rsatmalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Multiplikatsion, kino, serial, idioma, fraza, agglyutinatsiya, obraz, mentalitet, madaniyat, grammatika, atmosfera, video, teleko‘rsatuv, subtitr.

Bir necha yillar davomida til o‘qituvchilari va tadqiqotchilari tilni yaxshilash ingliz tilini chet yoki ikkinchi til sifatida o‘rganish-o‘rgatish (Abdul Halim, 2021; Ariffin, 2021; Ja‘afar) yo‘llarini izlashdi. Ikkinchi tilni o‘qitishni yaxshilash uchun filmlardan foydalanishning ortib borayotgan ahamiyati va o‘rganish ham ko‘plab olimlar tomonidan muhokama qilingan. Filmlarni qo‘llash bo‘yicha mavjud bo‘lgan tadqiqotlar ikkinchi tilni o‘zlashtirishning nazariy doirasiga sezilarli darajada asoslanadi (Aliyev, Albay, 2016; Ash, 2018; Byornsson va Andersson, 2019; Li va Vang, 2015; Ruusunen, 2011)[1]. Jadal rivojlanib borayotgan zamonda ko‘p til bilish odatiy holga aylanib qoldi. Bugunki kunda eng ko‘p o‘rganilayotgan tillardan biri bu – ingliz tili. Hozirgi davrda til o‘rganayotgan o‘quvchi talabalar uchun hukumatimiz tomonidan barcha kerakli shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. O‘quv xonalarini materiallar bilan boyitib ularni kerakli texnik bazalar bilan ta‘minlash esa istalgan tilni o‘rganishda qo‘l keladigan metod va uslublardan keng qamrovli foydalanishga yo‘l ochadi. Ammo, bu til biz uchun o‘rganishga biroz qiyinroq. Shunday bo‘lishiga qaramay, eng oson va samarali usullardan biri bu ingliz tilidagi kino va multiplikatsion filmlar tomosha qilish orqali o‘rganishdir.





Bilamizki, ingliz tilini o‘rganishning juda ko‘p usullari mavjud va bulardan biri tilni serial kinolar orqali o‘rganishdir. Inglizcha kino serial yoki multfilm ko‘rganingizda haqiqiy inglizlarning suhbatini tinglaysiz hamda o‘z ko‘zingiz bilan tomosha qilaysiz. Har bir inson individual shaxs hisoblanadi va har bir shaxs o‘ziga xos tarzda ma'lumotlarni qabul qiladi: kimdir eshitish yoki o‘qish orqali. Tadqiqotlarga ko‘ra, inson xotirasid ham ko‘rib ham eshitgan ma‘lumot yaxshiroq qolar ekan[7]. Bundan ko‘rinib turibdiki, filmlar tomosha qilish jarayonida siz yangi-yangi so‘zlar idiomalar frazalarga duch kelasiz va ularni eslab qolishingiz ehtimoli ancha yuqori bo‘ladi. Ularni yodlash orqali so‘z boyligi oshadi, shuningdek qaysi idiomalar so‘z va frazani qanday vaziyatda qo‘llash kerakligini bilib olishingiz mumkin[4]. Bu so‘zlarni hayotda qo‘llash orqali yana so‘zlashuv ko‘nikmalari (speaking skill) ni oshirsa bo‘ladi. Bu vaziyatning shunisi ahamiyatliki, til o‘rganuvchi shaxs o‘zi bilmagan holda “agglyutinatsiya”dan (agglyutinatsiya-yelimlash degan ma'noni bildirib, unda turli qismlarni ita qilib yangi obraz yaratiladi.) foydalanadi[2]. Bunda uning hayoliga muloqot jarayonida o‘rgangan so‘zlari ma‘lum obraz orqali yodiga tushadi. Natijada, yodga olinishi ancha oson va tezroq kechadi.

Turli xil teledasturlar seriallar ko‘rish nafaqat foydali mashg‘ulot balki insonga zavq bag‘ishlaydi. Bunday usuldan foydalanishning yana bir muhim jihatlaridan biri shuki, o‘rganilayotgan til sohiblarining mamalakatidagi urf-odatlar[3], ularning madaniyati hamda lingvistik muhitiga kira boshlaydi. O‘rganuvchi uchun tabiiy til muhiti bilan tanishish imkoni mavjud bo‘ladi hamda kommunikativ muhit yuzaga keladi. Agar bundan samarali foydalanishni xohlasangiz avvalo darajangizni va o‘zingiz qiziqadigan janri tanlashingiz zarur: melodrama komediya tragediya fantastik tarixiy kabi janrlar bor. Multfilm kino serial bilan ishlash metodi bir necha xil turlarga ajratiladi[5]:

1. Film ko‘rishdan avvalgi jarayon.
2. Film ko‘rish jarayoni.
3. Filmdan so‘ng.

Birinchisi, kinoni ko‘rishdan oldingi holat. Yuzaga keladigan fonetik grammatik qiyinchiliklarni bartaraf qilish nazarda tutiladi.



Ikkinchisi, aynan tomosha qilish jarayoni. Bunda serial yoki kinoni avval umumiy ma'noda tushunib ko'rish so'ng yana qayta tomosha qilish. Bu vaqtda o'rganuvchi kinoning har bir detallarini e'tiborga olgan holda kuzatadi.

Uchinchisi, albatta bu film so'ngida bo'ladigan jarayon va asosan bu so'zlashuv ko'nikmasini oshirish uchun yaxshi ishlaydigan usullardan biri sanaladi. Ko'rilgan filmni so'zlab berish ya'ni film mazmunini qisqacha yoki batafsil hikoya qilish hamda u monolog tarzida bo'lishi ham mumkin.

Agar filmlarni ko'rish jarayonida uni tushinishda katta muammolar bo'ladigan bo'lsa, avval uni o'z ona tilida ko'rish ham tavsiya qilinadi[6].

Demak, kino ko'rish bir vaqtni o'zida tinglash, lug'at boyligi, so'zlashuv ko'nikmasi (listening vocabulary speaking) hamda qisman grammatikani o'stirishga yordam beradi. Agar ingliz tilini o'rganishni boshlagan shaxs imkon qadar o'ziga inglizcha atmosfera yaratib olsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, har kuni o'qishdan va ishdan so'ng 2-3 soat vaqtni har xil serial, kinolar ko'rish, do'stlar, yaqinlar bilan suhbatlashib behuda vaqt sarflamasdan, o'sha paytda vaqtni 1ta xorijiy kino ko'rib samarali va foydali o'tkazish ma'qulroq [8].

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, qayta ko'rilgan kinoning samarasi ko'proq bo'ladi. Agar kino ko'rish zerikarli tuyulsa, har bir shaxs o'zining qiziqish va ehtiyojlaridan kelib chiqib, qiziq bo'lgan mavzudagi har xil qisqa video va teleko'rsatuv yoki multifilmlarning chet tilidagi variantini tomosha qilishi mumkin. Uchragan yangi so'zlarni bir daftar tutib ularni yozib olish samaraliroq. Shuningdek, so'zlardan har bir inson o'zi haqida yoki biror qiziqarli hikoya tuzib yodlashi ham mumkin. Inson xotirasi o'zi haqidagi va hissiyotlarga ta'sir ko'rsatgan informatsiyalarni oson va tezroq eslab qolish xususiyatiga ega. Imkoni bo'lsa, o'sha kinofilmni qaytadan subtitr bilan keyin subtitrsiz ko'rish tavsiya qilinadi va, albatta, o'rgangan so'zlarni amaliyotda qo'llashga harakat qilish kutilgan natijani beradi. Ko'p xorijiy kinolar ko'rish, borgan sari eshitish ko'nikmasi shakllantirib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Norwati R., Aini Faridah, Vahid N. Muhammad N. Exploring Movies for Language Teaching and Learning at the Tertiary Level. <https://doi.org/10.24191/ajue.v17i3.1452> Received: 15 June 2021.
2. Goziyev E. Umumiy psixologiya II kitob Toshkent universitet nashri 2002



3. Khayrullayevna, K.G. (2023). Some considerations on pragmatics and nonverbal means. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(8), 72–78. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/1248>
4. Khasanova Gulrukh Khayrullayevna. (2023). THE ROLE OF CONTEXT IN THE COMMUNICATION. Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium), 2, 6–9. Retrieved from <https://openconference.us/index.php/pedagogy/article/view/1049>
5. Rasulov Hasanboy Ingliz tilini kinolar ko‘rish orqali o‘rganish qanchalik foyda beradi? 2021 Hasanboy.uz
6. Shomuratova B.O‘. Ingliz tili darslarida Autentik videomateriallardan foydalanishning ahamiyati. *Innovation: Journal of social sciences and reserches*. 2023
7. Sharipova, Sarvinoz. “General aspects of theme – rheme and generation of given information in the context.” *Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari*. 4 (2024) 99-101.
8. Изучение английского языка по фильмам и сериалам: 13 лучших приемов. URL: <http://englex.ru/how-to-learn-english-by-films-and-tv-series> Как выучить английский язык по фильмам за год с небольшим URL: <https://ve.ru/p/learn-by-films>

